QASHQADARYO VILOYATI KOSON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 11-fevral | 32-4-60-Q/25 | Koson tuman hokimligi

Qashqadaryo viloyat hokimining 2025-yil 3-fevral kunidagi 48-4-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 29-yanvardagi PQ-31-sonli “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvi hamda belgilangan xizmat muddatini o‘tab bo‘lgan muddatli harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatish to‘g‘risida” gi hamda Qashqadaryo viloyati hokimining 2025-yil 3-fevral kunidagi 48-4-0-Q/25-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 29-yanvardagi PQ-31-sonli “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvi hamda belgilangan xizmat muddatini o‘tab bo‘lgan muddatli harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatish to‘g‘risida” gi hamda Qashqadaryo viloyati hokimining 2025-yil 3-fevral kunidagi 48-4-0-Q/25-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qashqadaryo viloyati hokimining mazkur qarori bilan:

chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish huquqiga ega bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasining chaqiruv yoshidagi fuqarolari 2025-yilning mart - aprel oylarida muddatli harbiy xizmatga chaqirilsin;

harbiy xizmatga yaroqli, shu jumladan cheklovlar bilan yaroqli bo‘lgan hamda chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish huquqiga ega bo‘lmagan, biroq ushbu chaqiruv davrida Qurolli Kuchlar safiga chaqirilmaydigan fuqarolar safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatiga olinsin;

muddatli harbiy xizmatning belgilangan muddatini o‘tab bo‘lgan harbiy xizmatchilar 2025-yilning mart-aprel oylarida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezerviga bo‘shatilishi belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish huquqiga ega bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasining chaqiruv yoshidagi fuqarolarini 2025-yilning mart - aprel oylarida muddatli harbiy xizmatga chaqirish bo‘yicha Tuman mudofaa ishlari bo‘limi huzuridagi Butlash komissiyasi tarkibi **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin;

chaqiruv yoshidagi fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga va safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga sifatli tanlab olish bo‘yicha Tuman hududiy komissiyasi tarkibi

2**-ilovaga**muvofiq tasdiqlansin; chaqiruv yoshidagi fuqarolarning muddatli harbiy xizmatga sog‘ligi bo‘yicha tibbiy guvohlantirishni tashkil etish bo‘yicha Tuman hududiy tibbiy komissiyasi tarkibi **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin;

fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvi hamda belgilangan xizmat muddatlarini o‘tab bo‘lgan harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatilishi bo‘yicha vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli tashkillashtirish yuzasidan tumanda chora-tadbirlar rejasi **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining birinch o‘rinbosari H.Nazarov, hududiy komissiyasi raisiga:

chaqiruv yoshdagi fuqarolarning muddatli harbiy xizmatga chaqirilishini tashkil etsin;

chaqiriluvchilarning sifatli va xolisona tibbiy-ko‘rikdan o‘tkazilishini, ularning ma’naviy va ruhiy fazilatlarini hamda intellectual rivojlanish saviyasini harbiy-kasbiy mezonlariga muvofiq, belgilangan tanlov talablari asosida o‘rganib chiqilsin va hududiy komissiya a’zolarining samarali ishlashini tashkil qilsin;

hududiy komissiya a’zolariga zarur shart-sharoitlar yaratib bersin;

tuman chaqiruv punktini o‘quv-mashg‘ulotlari va chaqiriluvchilarni tibbiy-ko‘rikdan o‘tkazish joylarini tayyorlash hamda ularni o‘z vaqtida jihozlash choralari ko‘rsin;

tuman chaqiruv punktida umumiy ovqatlanish va madaniy hordiq chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratsin;

muddatli harbiy xizmatga jo‘natilayotgan chaqiriluvchilarga tantanali tadbirlarda qo‘l soatlari va badiiy kitoblarni topshirish hamda chaqiriluvchilarga bayramona tushlik dasturxoni tashkillashtirsin;

tuman mudofaa ishlari bo‘limi (Z.Xasanov), madaniyat bo‘limi (N.Bomirov), tuman sport maktabi, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (Sh.Fayzullayev), mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (U.Ochilov) bilan birgalikda muddatli harbiy xizmatga kuzatish marosimlarini keng jamoatchilik, faxriylar, madaniyat arboblari ishtirokida tantanali tadbir o‘tkazilishini ta’minlash vazifasi yuklansin.

5. Tuman prokurori (F.Jovliyev)ga:

chaqiruvdan bosh tortayotgan fuqarolarga nisbatan qonuniy choralar ko‘rishni amalga oshirish tavsiya etilsin.

6. Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i (Sh.Fayzullayev)ga:

har bir mahallalarda yoshlar yetakchilari tomonidan mahalladagi botir, qo‘rqmas, jasur yigitlarni o‘rganish va ularning orasidan eng yaxshilarini muddatli harbiy xizmatga tavsiya qilish vazifalari yuklansin.

7. Tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i (B.Mirzayev)ga:

“Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 45-moddasiga asosan, tuman mudofaa ishlari bo‘limiga taqdim etgan ro‘yxatiga binoan chaqiruv komissiyasiga o‘z vaqtida kelmagan fuqarolarni to‘liq jalb etilishini ta’minlasin;

tuman chaqiruv punktida jamoat tartibini saqlash choralari ko‘rilsin;

chaqiriluvchilarni viloyat yig‘in punktiga olib borish va olib ketish davrida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlasin;

jinoiy javobgarlikka tortilgan va tergov ishlari olib borilayotgan, diniy oqimlar hisobida turuvchi chaqiriluvchilarning ro‘yxatini mudofaa ishlari bo‘limiga belgilangan muddatda taqdim etish vazifasi yuklansin.

8. Tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i (F.Tursunov)ga:

O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligidan 3147-1 ва 3147-2-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligining 2019-yil 14-martdagi 11, 8, 5, 6, 23 QQ, 37-son Qarorlariga asosan, chaqiruv punktlarini tibbiy anjomlar, asbob-uskunalar bilan talab darajasida jihozlash, shuningdek, hududiy tibbiy komissiya a’zolarining samarali ishlashi chaqiriluvchilarni tibbiy ko‘rikdan sifatli va xolisona o‘tkazilish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va ijrosini o‘z vaqtida ta’minlash choralarini ko‘rsin;

chaqiriluvchilarni tibbiy ko‘rikdan talab darajasida o‘tkazish maqsadida, chaqiruv punktida oliy va birinchi toifali tibbiyot hodimlarini jalb qilish choralarini ko‘rsin;

tuman chaqiruv punktini zarur tibbiy asbob-uskuna va dori-darmonlar bilan ta’minlasin;

ruhiy kasalliklar, silkasalliklari, teri-tanosil va giyohvandlik tibbiy birlashmalarida hisobda turgan chaqiriluvchilarning ro‘yxatini mudofaa ishlari bo‘limiga taqdim etsin;

tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish jarayonida kasalligi aniqlangan chaqiriluvchi yoshlarni o‘z vaqtida davolash va sog‘lomlashtirish ishlarini amalga oshirish uchun Tuman shifoxonasidan zarur yotoq-joylarini ajratish va davolash va sog‘lomlashtirish ishlarini amalga oshirsin.

9. Tuman moliya bo‘limi (Sh.Turdialiyev) tibbiy-ko‘rikdan o‘tkazish uchun jalb qilingan barcha tibbiyot xodimlarining oylik maoshlariga ketadigan sarf-

xarajatlarni belgilangan tartibda mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan to‘lash choralarini ko‘rsin.

10. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko’maklashish bo’limi boshlig’i (Sh.Avazov)ga:

Qurolli Kuchlardan rezerviga bo‘shatilgan fuqarolarni ishga joylashtirish chora- tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, ular uchun xizmat davrida egallagan harbiy va fuqarolik mutaxassisliklarini hisobga olgan holda ish joylari oldindan tayyorlab qo‘yilishini ta’minlasin;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida muddatli harbiy xizmatni o‘tagan fuqarolar davlat muassasasi, tashkilot va korxonalarida ishga qabul qilinishida mamlakatning eng faol va tayyorgarlik ko‘rgan kadrlar zahirasi hisoblangan shaxslar sifatida ustunlik huquqidan foydalanishi belgilab qo‘yilganligini inobatga olsin.

11. Tuman hokimligi matbuot xizmati (D.Nabiyev):

chaqiriluvchilarni hududiy tibbiy komissiya ko‘riklaridan o‘tish, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmatni tashkil qilish va Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni joylarda kutib olish va kuzatish kabi o‘tkaziladigan tantanali tadbirlarni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish choralarini ko‘rsin.

12. Tuman hokimining birinchi o`rinbosari H.Nazarov:

chaqiruv punktida, chaqiriluvchilarning hujjatlarini rasmiylashtirish uchun yetarli texnik hodimlar ajratish, bunda hodimlarning faoliyati ish haqini to‘liq saqlangan holda ishtirok etishini ta’minlash topshirilsin.

13. Mazkur qaror ijrosini nazorati tuman hokimining birinchi o‘rinbosari H.Nazarov zimmasiga yuklatilsin.

Koson tuman hokimi **A.Boykaraev**

Koson tuman hokimining
2025-yil 11-fevraldagi
32-4-60-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga chaqirilish bo‘yicha tuman mudofaa ishlari bo‘limi huzuridagi butlash komissiyasi

TARKIBI

Rustamov Sheroz Oblaqulovich - Butlash komissiyasi raisi, JHMO 53943 harbiy qism komandirining moddiy ta`minot bo`yicha o‘rinbosari podpolkovnik

A’ZOLARI

Polvonov Abduraxim Ural o`g`li - Davlat xafsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari vakili mayor

Donyorov Nurillo Fayzullayevich - Favqulodda vaziyatlar bo'limi vakili podpolkovnik

Ergashev Jonibek Jurayevich - Milliy gvardiya bo'limi vakili kapitan

Jabborov Sherzod Rustamovich - Koson tumani Ichki ishlar bo'limi o`rinbosari vakili podpolkovnik

Tilovova Sadoqat Tuymurodovna - Koson tumani mudofa ishlari bulimi chaqiruv bulinmasi katta yordamchisi kotiba

Izoh: Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

Koson tuman hokimining
2025-yil 11-fevraldagi
32-4-60-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Chaqiruv yoshidagi fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga va safarbarlik chaqiruv rezervi xizmatiga sifatli tanlab olish bo‘yicha tuman hududiy komissiyasi

TARKIBI

H.Nazarov - Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, komissiya raisi.

Z.Xasanov - Tuman mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i, komissiya raisi o‘rinbosari

A'ZOLARI

Z.Yuldoshev - tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari

N. Asliddinova - Mahalla uyushmasi Tuman vakili

Ya.A.Sattorov - tibbiy komissiya katta shifokori

M.T.Halimova - Tuman kup tarmoqli markaziy poliklinikasi hamshirasi kotibasi

Izoh: Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

Koson tuman hokimining
2025-yil 11-fevraldagi
32-4-60-Q/25-son qaroriga
3-ilova

Chaqiruv yoshidagi fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga va safarbarlik chaqiruv rezervi xizmatiga sifatli tibbiy-ko‘rikdan o‘tkazish uchun Tuman hududiy tibbiy komissiyasi

TARKIBI

Sh.Sharofiddinov	- tuman ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasi ichki kasalliklar vrachi
S.Maxmadiyorov	- tuman ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasi asab kasalliklari vrachi
N.Sharopova	- tuman ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasi teri-tanosil kasalliklari vrachi
Sh.Ravshanova	- tuman ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasi psixiator vrachi
D.Xusanova	- tuman ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasi lor vrachi
M.Nurkamolov	- tuman ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasi stomatolog vrachi
S.Xudoyqulova	- Tuman ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasi ko’z kasalliklari vrachi
N.Toshmurodov	- tuman ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasi jarroh vrachi
I.Abdullayeva	- tuman ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasi hamshirasi antropometriya
O.Qosimova	- tuman ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasi hamshirasi antropometriya

Izoh: Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

Koson tuman hokimining
2025-yil 11-fevraldagi
32-4-60-Q/25-son qaroriga
4-ilova

Fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvi hamda belgilangan xizmat muddatlarini o‘tab bo‘lgan harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatilishi bo‘yicha vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli tashkillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar
REJASI

T/r	Amalga oshiriladigan tadbirlarning mazmuni	Ijro muddati	Ijrou chun mas’ullar
1.	Komissiyalar faoliyatining shaffofligiga alohida e’tibor qaratish, komissiya tomonidan adolatli qaror qabul qilinishini hamda harbiy xizmatga eng loyiq nomzodning tanlab yuborilishini ta’minlash.	Mart-aprel oylari	Tuman hududiy kengashi, tuman butlash komissi
2.	Muddatli harbiy xizmatning belgilangan muddatlarini o‘tab bo‘lgan harbiy xizmatchilarni kutib olish va harbiy qismlarga yuborilayotgan harbiy xizmatchilarni tantanali kuzatib qo‘yish marosimlarini belgilangan reja-jadval asosida keng jamoatchilik, urush va mehnat faxriylari hamda harbiy xizmatchilarning ota-onalari ishtirokida tantanali ko‘rinishda o‘tkazish.	Mart-aprel oylari	Viloyat Rahbariyat kengashi, tumanlar va shaharlar hududiy komissiyalari, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi
3.	Fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga kuzatish hamda kutib olishga bag‘ishlangan marosimlarga muddatli harbiy xizmatni o‘tab, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning hayotida o‘z o‘rnini topishida harbiy xizmatning roli va o‘rni haqidagi chiqishlarini tashkil etish.	Mart-aprel oylari	O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tuman kengashi, viloyat oliy ta’lim muassasalari
4.	Viloyat yig‘uv punktida fuqarolarni harbiy qismlarga tantanali kuzatib qo‘yish tadbirlari davomida muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan harbiy xizmatchilarga bayram tushligi tashkil etish hamda har bir muddatli harbiy xizmatchiga esdalik sovg‘alari tariqasi “O‘zbekiston Qurolli Kuchlari” maxsus logotipi tushirilgan 18 turdagi gigienik vositalari bilan jihozlangan to‘plam sumkalarini berish.	Mart-aprel oylari	Tuman hududiy kengashi Tuman madaniyat bo`limi O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tuman Kengashi, tuman hokimligi
5.	Viloyat yig‘uv punktida fuqarolarni harbiy qismlarga tantanali kuzatib	Mart-aprel	Viloyat rahbariyat kengashi,

	qo‘yishga bag‘ishlangan mitinglar o‘tkazish uchun texnik jihozlar hamda ijodiy jamoalar va badiiy havaskorlar, badiiy jamoalar, taniqli san’atkorlar, sportchilar, “Zulfiya” davlat mukofoti sovrindorlari, yozuvchi va shoirlar tomonidan ko‘ngilochar musiqiy konsert dasturlarini tashkillashtirish.	oylari	viloyat madaniyat boshqarmasi, viloyat yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limi, “O‘zbekkonsert” DM viloyat bo‘limi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi, tumanlar va shaharlar hokimliklari
6.	Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatilgan fuqarolar uchun xizmat davrida egallagan harbiy va fuqarolik mutaxassisliklarini hisobga olgan holda ish joylarini oldindan tayyorlab qo‘yish choralarini ko‘rish. Muddatli harbiy xizmatni o‘tagan va safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatchilarini ishga joylashtirish bo‘yicha “Bo‘sh ish o‘rinlari” yarmarkalarini tashkillashtirish va o‘tkazish.	2025-yil 1 mayga qadar	Muddatli harbiy xizmatni o‘tagan va safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatchilarini ishga joylashtirish bo‘yicha tuman bandlik komissiyasi
7.	Tuman chaqiruv punki tibbiy komissiyalari tarkibini yuqori malakali tibbiyot xodimlari va zarur tibbiy asbob-anjomlar bilan ta’minlash.	Mart-aprel oylari	Tuam tibbiyot birlashmasi, tuman mudofaa ishlari bo`limi
8.	Chaqiriluvchilarni tuman mudofaa ishlari bo‘limidan viloyat yig‘in punktiga olib kelish va olib ketish, chaqiriluvchilarni muddatli harbiy xizmatga yuborish uchun viloyat yig‘in punktidan temiryo‘l bekatigacha olib borish hamda muddatli harbiy xizmatni o‘tab bo‘lgan, Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni temiryo‘l bekatidan viloyat yig‘in punktiga olib kelish uchun belgilangan tartibda transport vositalarini ajratish choralarini ko‘rish.	Alohida reja jadvalga muvofiq	Avtomobil transporti agentligi viloyat boshqarmasi, tuman ichki ishlar, mudofaa ishlari bo`limi
9.	Tumanl hududiy komissiyalari ish faoliyati uchun kerakli bo‘lgan kanselyariya mollari, tibbiy asbob-uskunalar va jihozlar, tipografik blankalar sotib olish uchun mahalliy budjetdan tegishli mablag‘ ajratish.	Belgilangan muddatlarda	tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, tuman Iqtisodiyot va moliya bo`limi
10.	Fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga tayyorlashni borishi, ularni harbiy xizmatga chaqirishни amalga oshirilishi, komissiyalarнинг ishi, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatning tashkil qilinishi va Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatilgan fuqarolarni joylarda tantanali kutib olish tadbirlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish.	Belgilangan muddatlarda	Tuman , “Koson” gazetasi taxririyati
11.	Yig‘in punktida muddatli harbiy xizmatga chaqiriladigan harbiy xizmatchilarni tantanali kuzatuv marosimi boshlangunga qadar ularning fuqarolik kiyim boshlarini to‘liq almashtirib, harbiy kiyimlarda saf maydonida saflanishini tashkillashtirsin.	Chaqiruv mavsumi davomida	Viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi

12.	Viloyat yig‘uv punktiga chaqiriluvchilar to‘planish va jo‘natish joylarida jamoat tartibini saqlash maqsadida 4 nafar ichki ishlar hodimlarini 2025-yil 20-fevral kunidan 2025-yil 1-may kuniga qadar viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi boshlig‘ining ixtiyoriga yuborish.	Chaqiruv mavsumi davomida	Viloyat ichki ishlar, milliy gvardiya boshqarmalari
13.	Reja-jadvalga asosan muddatli harbiy xizmatga yuboriladigan chaqiriluvchilarni viloyat yig‘in punktidan temiryo‘l bekatigacha olib borish hamda muddatli harbiy xizmatni o‘tab bo‘lgan, Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatilganlarni temiryo‘l bekatidan viloyat yig‘in punktiga olib kelish bo‘yicha olib boradigan avtotransport vositalarini kuzatib borish uchun yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi xodimlarining avtopatrul mashinasi bilan kelishini ta’minlash.	Mart-aprel oylari	Viloyat ichki ishlar boshqarmasi
14.	Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatilgan fuqarolarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun va safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatiga qabul qilingan fuqarolarga Mudofaa vazirligi maxsus hisob raqamiga badal to‘lovlarini amalga oshirishda bank kreditlari imkoniyatlaridan foydalanishi bo‘yicha tushuntirishlar berish.	2025-yil 1-mayga qadar	Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi, Savdosanoat palatasi viloyat boshqarmasi, tijorat banklari, shaharlar va tumanlar hokimliklari